



O'ZBEKISTONDA QQS DAROMADLAR NISBATI VA FISKAL SAMARADORLIK: SO'NGGI SOLIQ ISLOHOTLARI ASOSIDA TAHLIL

Shamsiyev Fazliddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-1360-7632

shfazik.fs@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning qo'shilgan qiymat solig'ining fiskal samaradorligi "QQS daromadlar nisbati (VRR)" ko'rsatkichi asosida OECD metodologiyasi bo'yicha baholanadi. Tadqiqotda 2019–2024-yillar davomida amalga oshirilgan soliq islohotlari, jumladan QQS stavkasining pasaytirilishi, elektron hisob-faktura tizimining joriy etilishi va soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish choralari tahlil qilinadi. Natijalar mazkur davrda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va QQS tushumlari o'sishiga qaramay, VRR darajasi deyarli o'zgarmagani, norasmiy iqtisodiyot ulushi, naqd pul asosidagi operatsiyalar va soliq imtiyozlari QQS yig'imdorligiga ta'sir qiluvchi muhim omillar ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: QQS, VAT Revenue Ratio, fiskal samaradorlik, soliq ma'muriyatchiligi, raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyot, soliq islohotlari.

СООТНОШЕНИЕ ДОХОДОВ ОТ НДС И ФИСКАЛЬНАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ ПОСЛЕДНИХ НАЛОГОВЫХ РЕФОРМ

Шамсиев Фазлиддин

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье фискальная эффективность налога на добавленную стоимость в Узбекистане оценивается на основе показателя VAT Revenue Ratio (VRR) в соответствии с методологией OECD. В исследовании анализируются налоговые реформы, осуществлённые в 2019–2024 годах, включая снижение ставки НДС, внедрение системы электронных счетов-фактур и меры по цифровизации налогового администрирования. Результаты подтверждают, что, несмотря на рост макроэкономических показателей и поступлений по НДС в данный период, уровень VRR практически не изменился, а доля неформальной экономики, операции на основе наличных денежных средств и налоговые льготы остаются важными факторами, влияющими на собираемость НДС.

Ключевые слова: НДС, VAT Revenue Ratio, фискальная эффективность, налоговое администрирование, цифровизация, теневая экономика, налоговые реформы.

VAT REVENUE RATIO AND FISCAL EFFICIENCY IN UZBEKISTAN: AN ANALYSIS BASED ON RECENT TAX REFORMS

Shamsiyev Fazliddin

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article evaluates the fiscal efficiency of value added tax in Uzbekistan based on the VAT Revenue Ratio (VRR) indicator in accordance with the OECD methodology. The study analyzes tax reforms implemented during 2019–2024, including the reduction of the VAT rate, the introduction of the electronic invoicing system, and measures aimed at the digitalization of tax administration. The findings confirm that despite the growth of macroeconomic indicators and VAT revenues during this period, the VRR level remained nearly unchanged, while the share of the informal economy, cash-based transactions, and tax exemptions remained important factors affecting VAT collection efficiency.*

Keywords: *VAT, VAT Revenue Ratio, fiscal efficiency, tax administration, digitalization, informal economy, tax reforms.*

Kirish.

Qoʻshilgan qiymat soligʻi (QQS) zamonaviy fiskal tizimlarning asosiy tayanch unsurlaridan biri boʻlib, bugungi kunda dunyo miqyosida bilvosita soliqlarning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. OECD mamlakatlarida QQS umumiy soliq tushumlarining oʻrtacha qariyb beshdan bir qismini tashkil etadi, bu esa uning daromadlarni safarbar etish va fiskal barqarorlikni taʼminlashdagi markaziy rolini koʻrsatadi (OECD, 2024)

QQSning iqtisodiy jihatdan jozibadorligi uning keng soliq bazasiga ega ekanligi, ishlab chiqarish bosqichlari oʻrtasida neytrallikni taʼminlashi hamda “hisobga olish” mexanizmi orqali oʻzini oʻzi nazorat qiluvchi tizimga ega boʻlishidadir. Biroq nazariy jihatdan yuqori samaradorlikka ega boʻlishiga qaramay, amalda QQS koʻrsatkichlari mamlakatlar kesimida sezilarli darajada farqlanadi. Bunga soliq imtiyozlari, preferensial stavkalar, soliq maʼmuriyatchiligidagi kamchiliklar hamda soliqdan boʻyin tovlash holatlari sabab boʻladi.

Soʻnggi oʻn yil davomida Oʻzbekiston fiskal tizimni modernizatsiya qilish, biznes muhitini yaxshilash va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan keng koʻlamli soliq islohotlarini amalga oshirdi. Ushbu islohotlarning muhim bosqichi sifatida 2019-yil 26-sentabrdagi PF–5837-sonli Prezident farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatga muvofiq, QQSning standart stavkasi 20 foizdan 15 foizga, keyinchalik esa 2023-yildan boshlab 12 foizga tushirildi. Shu bilan birga, tushumlar barqarorligini saqlab qolish uchun soliq bazasini kengaytirish va intizomni kuchaytirish mexanizmlariga tayanildi.

Shuningdek, 2019-yil 1-iyuldan boshlab elektron hisob-fakturalar ixtiyoriy tartibda, 2020-yil 1-yanvardan esa barcha xoʻjalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy tartibda joriy etildi. Ushbu oʻzgarish QQS zanjirini mustahkamlab, operatsiyalarni real vaqt rejimida roʻyxatdan oʻtkazish va kuzatish imkonini yaratdi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-sonli qarori asosida onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalardan majburiy foydalanish joriy etildi. Ushbu mexanizm chakana savdo operatsiyalarini real vaqt rejimida qayd etish orqali savdo aylanmalarining shaffofligini oshirish va tushumlarni yashirish holatlarini kamaytirishga qaratildi.

Shuningdek, tovarlarni raqamli markirovkalash va mahsulotlarni kuzatish tizimlari joriy qilinib, taʼminot zanjiri monitoringi va QQS zanjirining yaxlitligini mustahkamlash choralari koʻrildi (3, x). Elektron xizmatlar koʻrsatuvchi xorijiy kompaniyalar uchun ham QQS majburiyatlari belgilandi, bu esa milliy qonunchilikni raqamli iqtisodiyotga soliq solish boʻyicha global tendensiyalar bilan uygʻunlashtirdi.

Mazkur islohotlar yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va fiskal shaffoflikni oshirishga qaratilgan milliy strategiyalar bilan bevosita bog'liq. Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish, naqdsiz to'lovlarni kengaytirish, tranzaksiyalarni kuzatish imkoniyatlarini kuchaytirish hamda stavkalarni tizimli qayta ko'rib chiqish — bularning barchasi QQS intizomi va fiskal samaradorlikka ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tarkibiy o'zgarishlardir.

Biroq, ushbu islohotlarning ko'lami va chuqurligiga qaramay, O'zbekistonning QQS daromadlar nisbati (VAT Revenue Ratio — VRR) hamda uning islohotlar davridagi dinamikasi bo'yicha kompleks akademik baholash hozircha mavjud emas. Bu esa Markaziy Osiyo va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida QQS samaradorligi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda sezilarli bo'shliq mavjudligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan soliq ma'murchiligini takomillashtirish, raqamlashtirish va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish masalalari keng o'rganilgan. Masalan, Abdulov va boshqalar (2025) soliq ma'murchiligini boshqarish mexanizmlarining konseptual asoslarini ishlab chiqib, raqamli vositalar fiskal intizomni kuchaytirishini ta'kidlaydi. Turabov (2025) esa soliq va bojxona imtiyozlarining samaradorligini baholash zarurligini ko'rsatib, soliq bazasining torayishi fiskal natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi.

Xalqaro adabiyotlarda VRR (VAT Revenue Ratio) yoki C-efficiency QQS tizimining fiskal samaradorligini baholashda asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. OECD metodologiyasiga ko'ra, VRR amaldagi QQS tushumlarining standart stavka qo'llanganda yakuniy iste'mol bazasidan olinishi mumkin bo'lgan teoretik tushumga nisbatidir.

OECD (8; 69) tadqiqotlarida VRRni pasaytiruvchi asosiy omillar sifatida soliq imtiyozlari va differensial stavkalar (policy gap), yashirin iqtisodiyot va soliqdan bo'yin tovlash (compliance gap), ma'murchilikning institutsional zaifligi ko'rsatiladi.

Keen va Lockwood (2013, 2007) tomonidan o'tkazilgan keng qamrovli empirik tadqiqot QQS joriy etilishi va institutlar sifati o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ularning natijalariga ko'ra, yaxshi boshqaruv va kuchli soliq ma'murchiligiga ega davlatlarda QQS yuqori fiskal samaradorlik beradi.

Morrow, Smart va Swistak (2020) VRR ko'rsatkichining import ulushi, savdo ochiqligi va institutsional sifat bilan bog'liqligini aniqlagan. Ularning tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, yuqori importga ega davlatlarda QQS yig'indorligi nisbatan yuqori bo'lishi mumkin, biroq bu ko'rsatkich ichki yig'indorlikni darajasini to'liq aks ettirmaydi.

Shuningdek, Benzarti va Carloni (2019) QQS stavkasi o'zgarishlarining narxlarga va real sektor ishtirokchilariga uzatilish mexanizmlarini empirik tahlil qilib, stavka pasayishi har doim ham fiskal samaradorlikni avtomatik oshirmasligini ko'rsatadi. Bu esa VRR dinamikasini faqat stavka o'zgarishi bilan izohlash yetarli emasligini anglatadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki:

1. O'zbekistonda QQS bo'yicha ko'plab normativ va amaliy tahlillar mavjud bo'lsa-da, VRR ko'rsatkichi asosida tizimli empirik baholash yetarli darajada amalga oshirilmagan.

2. Stavka pasayishi va raqamlashtirish islohotlarining fiskal samaradorlikka kompleks ta'siri xalqaro metodologiya asosida baholanmagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

QQS daromadlar nisbati (VAT Revenue Ratio — VRR) mamlakat QQS tizimining o'zining "tabiiy" soliq bazasidan, ya'ni yakuniy iste'mol xarajatlaridan, qanchalik samarali daromad undira olayotganini ko'rsatish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichdir.

Sodda qilib aytganda, VRR hukumat tomonidan amalda yig'ilgan QQS tushumlarini ideal sharoitda yig'ilishi mumkin bo'lgan QQS tushumlari bilan taqqoslaydi. Ideal holatda barcha yakuniy iste'mol bir xil standart QQS stavkasi bilan soliqqa tortiladi, hech qanday imtiyozlar yoki pasaytirilgan stavkalar mavjud bo'lmaydi hamda to'liq soliq intizomi ta'minlangan bo'ladi.

Agar VRR qiymati 1 ga teng bo'lsa, bu soliq siyosatidagi buzilishlar (imtiyozlar, pasaytirilgan stavkalar) va intizom yo'qotishlari (firibgarlik, norasmiy faoliyat) mavjud emasligini, ya'ni to'liq samarali QQS tizimini anglatadi. Amaliyotda esa ko'pgina mamlakatlarda VRR ko'rsatkichi 0,5–0,7 oralig'ida qayd etiladi. Bu esa siyosiy bo'shliqlar va ijro intizomidagi yo'qotishlar mavjudligini ko'rsatadi.

VRR odatda quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$VRR = \frac{Vr}{B * r}$$

Bu yerda:

VR = haqiqatda yig'ilgan QQS tushumi;

B = potensial QQS bazasi;

r = standard QQS stavkasi.

VRRni hisoblashda QQSning potensial soliq bazasi odatda milliy hisoblar tizimidan olingan yakuniy iste'mol xarajatlari (Final Consumption Expenditure — FCE) asosida aniqlanadi. Biroq FCE ko'rsatkichi bozor narxlarida qayd etiladi va ushbu narxlar tarkibida odatda QQS allaqachon kiritilgan bo'ladi.

Shu bilan birga, QQSning "potensial bazasi"ni hisoblashda baza soliqqa tortishdan oldingi qiymatni aks ettirishi lozim. Chunki nazariy jihatdan olinishi mumkin bo'lgan QQS tushumini baholashda soliqning o'zi soliq bazasi tarkibiga kiritilmasligi kerak. Aks holda, soliq ustiga yana soliq hisoblangan bo'ladi, bu esa metodologik xatolikka olib keladi.

Shu sababli iste'mol ko'rsatkichidan QQS tarkibini ajratib tashlash zarur.

FCE tarkibida QQS mavjudligini inobatga olgan holda, VRR quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$VRR = \frac{Vr}{(FCE - Vr) * r}$$

Agar FCE tarkibida QQS mavjud bo'lsa, unda ushbu model doirasida QQS tushumlarini ayrish amaliy jihatdan QQSsiz iste'mol hajmini aniqlash imkonini beradi. Aynan shu ko'rsatkich nazariy mezon uchun konseptual jihatdan to'g'ri soliq bazasi hisoblanadi.

Yakuniy iste'mol xarajatlari (FCE) bo'yicha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy nashrlaridan olindi. Amaldagi QQS tushumlari to'g'risidagi ma'lumotlar esa Davlat soliq qo'mitasi manbalariga asoslanadi.

VRRni hisoblashda muhim parametr hisoblangan QQSning standart stavkasi tadqiqot davrida o'zgarib borgan: 2019-yilda u 20 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bosqichma-bosqich pasaytirilib, 2024-yilga kelib 12 foiz darajasiga yetkazilgan. Mazkur stavka o'zgarishlari vaqt kesimida metodologik izchillik va taqqoslanish imkonini ta'minlash maqsadida har bir yil bo'yicha VRR hisob-kitoblarida alohida inobatga olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


O'zbekistonda QQS tizimini kompleks isloh qilish jarayoni amalda 2019-yildan boshlandi va bu mamlakat fiskal siyosati hamda soliq ma'muriyatchiligi tizimida tub burilish nuqtasi bo'ldi. Mazkur davrgacha QQS asosan yirik korxonalariga tatbiq etiladigan soliq sifatida amal qilgan, kichik va o'rta biznes subyektlarining sezilarli qismi esa soddalashtirilgan soliq rejimida faoliyat yuritgan yoki QQS zanjiridan to'liq tashqarida qolgan edi.

Islohotlarning dastlabki muhim bosqichlaridan biri 2019-yil oxirida QQSning standart stavkasini 20 foizdan 15 foizga pasaytirish bo'ldi. Ushbu qaror sof fiskal emas, balki iqtisodiy asosga ega edi. Chunki yuqori QQS stavkasi ayniqsa yashirin iqtisodiyot ulushi katta bo'lgan mamlakatlarda soliqdan bo'yin tovlashga rag'batni kuchaytiradi.

Islohotlar jarayoni 2020-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi Soliq kodeksi bilan yanada chuqurlashdi. QQS to'lovchilari tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatgan muhim norma 462-modda bo'lib, unda majburiy QQS ro'yxatidan o'tish mezonlari aniq belgilandi va kengaytirildi.

Natijasida 2020-yilda QQS to'lovchilari soni keskin oshdi. 1-rasmda 2019-yildan joriy yilgacha bo'lgan davrda QQS to'lovchilari sonining o'sib borish dinamikasini aks ettiriladi.

2024-yil 27-dekabrda PF-229-sonli Prezident farmoniga asosan 2025-yil 1-apreldan boshlab farmatsevtika mahsulotlarini realizatsiya qiluvchi yoki tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi barcha yuridik shaxslar daromad hajmidan qat'i nazar QQS to'lovchilari sifatida e'tirof etilganligi sababli 2025-yilda QQS to'lovchilari sonining keskin oshishi ro'y berdi.



1-rasm. QQS to'lovchilari soni dinamikasi

Manba: Soliq qo'mitasi rasmiy web sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Biroq QQS to'lovchilari sonining ortishi avtomatik ravishda QQS tushumlari samaradorligi ham mutanosib ravishda oshadi, degani emas. Shu sababli soliq to'lovchilari bazasining kengayishi amaldagi QQS tushumlariga hamda ularning iqtisodiyotdagi nisbiy ulushiga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. 1-jadvalda QQS tushumlari, yalpi ichki mahsulot (YAIM) va umumiy budjet daromadlari o'rtasidagi nisbat tahlil qilinib, QQSning iqtisodiyotdagi ulushi aks ettirilgan. 2019-yilda O'zbekistonda QQSning standart stavkasi 20 foizni tashkil etgan bo'lib, bu QQSning umumiy

1-jadval.

QQS tushumining YAIM va Davlat budjeti daromadlariga nisbati: 2019–2025 yillar tahlili (mlrd.so'mda)

Yillar	YaIM	Budjet daromadlari	QQS tushumi	Ulushi, %	
				YaIMga nisbatan	Daromadlarga nisbatan
2019-yil	620 083,20	112 165,3	33 809,8	5,5	30,1
2020-yil	705 076,50	132 938,0	31 177,4	4,4	23,5
2021-yil	861 170,80	164 799,4	38 439,0	4,5	23,3
2022-yil	1 041 877,90	201 863,7	52 189,4	5,0	25,9
2023-yil	1 261 806,00	231 721,4	57 885,3	4,6	25,0
2024-yil	1 535 431,70	274 424,0	59 280,0	3,9	21,6
2025-yil	1 849 650,00	359 442,7	76 028,4	4,1	21,2

Manba: <https://siat.stat.uz/> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi budjet daromadlaridagi nisbatan yuqori ulushini (30 foiz) ta'minlagan.

Keyinchalik QQS stavkasining avval 15 foizga, so'ngra 12 foizga pasaytirilishi bevosita QQSning umumiy budjet tushumlaridagi nisbiy ulushini kamaytirdi. Nominal ifodada QQS tushumlari o'sishda davom etgan bo'lsa-da, ularning jami fiskal daromadlar tarkibidagi ulushi bosqichma-bosqich kamayib, 2025-yilda 21 foizgacha tushdi.

QQSning jami budjet tushumlaridagi ulushi asosan stavka pasaytirilishi va boshqa daromad manbalarining kengayishi hisobiga qisqargan bo'lsa-da, u hozirgacha davlat moliyasining eng yirik va barqaror manbalaridan biri bo'lib qolmoqda.

2-jadvalda ayrim xorijiy davlatlarning fiskal tuzilmasida QQS tushumlarining o'rni qiyosiy tarzda keltirilgan. Ma'lumotlar turli mamlakatlarda QQSning umumiy davlat daromadlaridagi ahamiyati sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatadi.

2-jadval.

OECD davlatlarida QQS tushumining YAIM va Davlat budjeti daromadlariga nisbati

Davlatlar	2021		2022		2023	
	YaIMga nisbatan	Jami daromadlarga nisbatan	YaIMga nisbatan	Jami daromadlarga nisbatan	YaIMga nisbatan	Jami daromadlarga nisbatan
Latviya	9,0	28,0	10,1	30,9	9,5	29,3
Yangi Zelandiya	10,1	29,3	9,9	30,3	9,8	29,2
Kolumbiya	5,9	30,5	6,2	31,8	6,0	27,3
Estoniya	9,1	27,1	9,1	27,7	9,1	27,0
Turkiya	5,3	23,2	5,0	24,0	5,5	23,6
OECD o'rtacha	6,9	20,7	7,0	20,8	6,8	20,5
Germaniya	7,1	18,1	7,3	19,0	6,9	18,5
Italiya	6,6	15,6	6,9	16,5	6,5	15,7
Koreya	4,0	14,4	4,5	15,3	4,1	15,3
Belgiya	6,8	16,0	6,4	15,4	6,3	15,0
Yaponiya	5,1	14,9	5,2	15,1	4,9	14,7
Kanada	4,7	13,4	4,6	13,6	4,8	13,8
Shveysariya	3,1	11,3	3,1	11,6	3,1	11,6
Avstraliya	3,2	11,1	3,4	11,5	3,3	11,1

Manba: <https://data-explorer.oecd.org> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Masalan, Italiya, Koreya, Belgiya, Yaponiya, Kanada, Shveysariya va Avstraliya kabi yuqori darajada rivojlangan iqtisodiyotlarda QQSning umumiy davlat daromadlaridagi ulushi 15 foizdan past darajada saqlanib kelmoqda. Bu mamlakatlarda davlat daromadlari tarkibi ko'proq daromad solig'i, korporativ soliq va boshqa fiskal manbalar hisobiga diversifikatsiyalangan.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Latviya, Yangi Zelandiya, Kolumbiya, Estoniya kabi davlatlarda QQS umumiy davlat daromadlarining 25 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Bu esa mazkur iqtisodiyotlarda QQS davlat moliyasi uchun ancha muhim va ustuvor daromad manbasi ekanini anglatadi.

3-jadvalda yuqoridagi formula asosida hisoblangan O'zbekistonning QQS daromadlar nisbatini ko'rishimiz mumkin.

3-jadval.

O'zbekistonning QQS daromadlar nisbati (VVR), 2019-2024

Yillar	YaIM	Yakuniy iste'mol xarajatlari	QQS	VVR
2019	620 083,2	479 739,9	33 809,8	0,4
2020	705 076,5	532 854,6	31 177,4	0,4
2021	861 170,8	671 894,6	38 439,0	0,4
2022	1 041 877,9	845 710,2	52 189,4	0,4
2023	1 261 806,0	1 000 385,4	57 885,3	0,5
2024	1 535 431,7	1 228 342,9	59 280,0	0,4

Kuzatilayotgan davr mobaynida O'zbekistonning nominal yalpi ichki mahsuloti (YAIM) sezilarli darajada oshib, 2019-yildagi 620 083,2 mlrd so'mdan 2024-yilda 1 535 431,7 mlrd so'mga yetdi. VRR hisoblashda asosiy soliq bazasi sifatida foydalaniladigan yakuniy iste'mol xarajatlari (Final Consumption Expenditure — FCE) ham sezilarli darajada kengayib, 2019-yildagi 479 739,9 mlrd so'mdan 2024-yilda 1 228 342,9 mlrd so'mga yetdi.

QQS tushumlari ham nominal ifodada o'sish tendensiyasini ko'rsatib, 2019-yildagi 33 809,8 mlrd so'mdan 2024-yilda 59 280,0 mlrd so'mga yetdi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning sezilarli o'sishiga hamda qator islohotlar amalga oshirilganiga qaramay, hisoblangan VRR ko'rsatkichi butun davr mobaynida deyarli barqaror bo'lib, 0,4 koeffitsient saqlanib qoldi. Faqat 2023-yilda 0,5 darajagacha oshgan bo'lsa-da, 2024-yilda yana 0,4 darajasiga qaytdi.

Qizig'i shundaki, 2024-yildagi VRR darajasi 2019-yilgi ko'rsatkichga teng bo'lmoqda. Biroq, 2019-yil QQS bo'yicha yirik islohotlar va keng ko'lamli raqamlashtirish jarayonlari boshlanishidan oldingi davr hisoblanadi. Demak, 2020-yildan joriy etilgan majburiy elektron hisob-faktura tizimi, stavka pasaytirilishi, QQS to'lovchilari bazasi kengaytirilishi, majburiy raqamli markirovka tizimi joriy qilinishi kabi islohotlar o'rta muddatli davrda VRR ko'rsatkichining o'sishiga olib kelmadi.

Ushbu natijani bir qator omillarni sabab qilib ko'rsatish mumkin. Avvalo, iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida (masalan, chakana savdo, qurilish materiallari savdosi, xizmat ko'rsatish sohasi) norasmiy iqtisodiyot va naqd pul asosidagi operatsiyalar hali ham sezilarli darajada saqlanib qolmoqda. Elektron hisob-faktura tizimi majburiy joriy etilganiga qaramay, naqd pul orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarda hisob-faktura va xarid cheki rasmiylashtirilmasligi QQS tushumlarining samarali yig'ilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2014-yilda kuzatilmaydigan iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 34,8 foizni (qishloq xo'jaligida 64 foiz, qurilish sohasida 41 foiz, xizmatlar sektorida esa 40 foiz) tashkil etgan. Umumiy hajmda esa kuzatilmaydigan iqtisodiyot 505 650,1 mlrd so'mga teng bo'lgan.

Bundan tashqari, ma'muriy islohotlar bilan bir vaqtda fiscal bo'shliqlar ham kengaygan deb hisoblash mumkin. Raqamlashtirish jarayonlari monitoringni yaxshilashga xizmat qilgan bo'lsa-da, soliq imtiyozlari, preferensial soliq rejimlari, soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimlari hamda ayrim tarmoqlar uchun berilgan alohida imtiyozlar samarali soliq bazasining kengayishini cheklab qo'yadi.

Xulosa va takliflar.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, QQS tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning tez o'sishiga qaramay, 2019–2024-yillar davomida O'zbekistonning QQS daromadlar nisbati (VRR) ko'rsatkichida barqaror

tarkibiy o'sish kuzatilmadi. Soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilishi, soliq to'lovchilari bazasining kengayishi hamda tranzaksiyalar monitoringining kuchaytirilishi QQS samaradorligini oshirishi kutilgan bo'lsa-da, umumiy natijalar islohotlardan oldingi davr bilan deyarli bir xil darajada qolganini ko'rsatadi.

Norasmiy iqtisodiyotning katta ulushi hamda naqd pul asosidagi operatsiyalarning saqlanib qolishi QQS tushumlarining samarali yig'ilishiga jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, berilgan soliq imtiyozlari soliq bazasining kengayishini cheklab, raqamli islohotlar orqali erishilgan intizomiy yutuqlarni qisman neytrallashtirgan bo'lishi mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalarini kelgusidagi ilmiy izlanishlarda qo'shimcha metodologik yondashuvlarni qo'llash hisobiga yanada chuqurlashtirish mumkin. Jumladan, statik tahlil bilan bir qatorda dinamik yondashuvlardan foydalanish ham tadqiqot natijalarini yanada boyitadi. Shuningdek, tarmoqlar kesimidagi hamda mikro darajadagi ma'lumotlarni jalb etish QQS tizimi samaradorligining tarkibiy omillarini yanada aniqroq va chuqurroq aniqlash imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi ilmiy tavsiyalar taklif etiladi:

1. Soliq imtiyozlari va preferensial rejimlarni optimallashtirish. VRR ko'rsatkichi eng yuqori bo'lgan Yangi Zelandiyada QQS imtiyozlari deyarli mavjud emas. O'zbekiston sharoitida ham QQS bo'yicha berilgan imtiyozlarni bosqichma-bosqich qayta ko'rib chiqish, iqtisodiy jihatdan asoslanmagan imtiyozlarni bekor qilish soliq bazasining kengayishiga xizmat qilishi mumkin.

2. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni yanada rag'batlantirish. QQSning samaradorligi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi naqd pulsiz to'lovlar ulushiga bog'liq. Janubiy Koreya tajribasida iste'molchilarga bank kartalari orqali amalga oshirilgan xaridlar uchun soliq chegirmalari berilishi natijasida naqd pulsiz to'lovlar keskin oshgan va QQS tushumlari ko'paygan. O'zbekistonda ham raqamli to'lov infratuzilmasini kengaytirish, iste'molchilarni elektron to'lovlardan foydalanishga rag'batlantirish hamda naqd operatsiyalarni yanada qisqartirish QQS yig'imining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

3. Elektron hisob-faktura tizimining analitik imkoniyatlarini kengaytirish. Elektron hisob-faktura tizimidan olingan katta hajmdagi ma'lumotlardan to'liq foydalanish uchun ilg'or analitik vositalar zarur. Xitoyda "Golden Tax Project Phase III" doirasida elektron hisob-faktura ma'lumotlari katta ma'lumotlar (big data) tahlili orqali qayta ishlanib, soliq xavflarini avtomatik aniqlash tizimi yaratilgan. O'zbekiston sharoitida ham elektron hisob-faktura tizimining ma'lumotlarini chuqur analitik tahlil qilish va sun'iy intellekt asosidagi risk tahlili vositalarini joriy etish QQS ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar/ Лумепамыра/References:

Abdulov, D. R., Ochilov, A. O., & Botirova, K. B. (2025). *Концептуальные основы управления механизма налогового администрирования в Республике Узбекистан*. Vestnik tsentra ekonomicheskikh issledovaniy. <https://vcec.ru/index.php/vcec/article/view/160>

Benzarti, Y., & Carloni, D. (2019). *Who really benefits from consumption tax cuts? Evidence from a large VAT reform in France*. American Economic Journal: Economic Policy. <https://www.aeaweb.org/articles?id=10.1257/pol.20170504>

CRPT Turon. (2023). *Regulatory framework for mandatory digital labeling in Uzbekistan*. <https://help.crpt-turon.uz/hc/en-us/articles/7403723826193-NPA-Laws-on-mandatory-digital-labeling-of-products-in-Uzbekistan>

Keen, M. (2013). *The anatomy of the VAT*. National Tax Journal, 66(2), 423–446. <https://doi.org/10.17310/ntj.2013.2.06>

Keen, M., & Lockwood, B. (2007). *The value added tax: Its causes and consequences*. University of Warwick. <https://wrap.warwick.ac.uk/id/eprint/271/>

Morrow, P., Smart, M., & Swistak, A. (2020). *VAT compliance, trade, and institutions*. University of Oxford, Saïd Business School. https://www.sbs.ox.ac.uk/sites/default/files/2020-06/Smart_M_vatcomplianceandtradeandinstitutions.pdf

Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2020). What drives consumption tax revenues? Disentangling policy and compliance gaps. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2020/04/what-drives-consumption-tax-revenues_d8731cea/94ed8187-en.pdf

Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2024). Consumption tax trends 2024: VAT/GST and excise, core design features and trends. https://www.oecd.org/en/publications/consumption-tax-trends-2024_57c7322a-en.html

*Turabov, U. O. (2025). Issues of introducing a procedure for assessing the effectiveness of tax and customs benefits. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 6(3), 29–40.*

Lex.uz. (n.d.) Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. www.siat.stat.uz

Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan. (n.d.) SIAT: Statistical information system.